



**IERONIM MEGIZERNING “TURKIY TIL NEGIZLARI” ASARIDA
TURKIY TIL ETIMOLOGIYASINING IFODALANISHI**

Mahkamova Dilafruz Shavkat qizi

@mail:dilafruz-mahkamova@mail.ru

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
1-kurs tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Maqola XVII asrda Leyptsig shahrida bosmaxona usulida chop etilgan, Ieronim Megizer qalamiga mansub, yevropaliklar uchun turkiy tillarni o‘rganishga bag‘ishlangan, turkiy til grammatikasi, turkiy xalqlar madaniyati, siyosiy munosabatlari, adabiy janrlari, xususan, asarning ikkinchi bobida keltirilgan turkiy tillar etimologiyasining tarjimasi va tahliliga oid. Tahlil jarayonida ismlar, turlanish, kelishiklar, sifatning darajalari haqida ma’lumotlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Ieronim Megizer, “Turkiy til negizlari”, etimologiya

Annotation. This article examines a 17th-century work authored by Hieronymus Megiser and printed in Leipzig, which was intended to facilitate the study of Turkic languages for European audiences. The publication encompasses essential aspects of Turkic grammar, the cultural context of Turkic-speaking peoples, political relations, and literary genres. Special attention is given to the second chapter of the work, which presents a translation and philological analysis of the etymology of Turkic languages. The study provides detailed insights into noun morphology, including declension patterns, grammatical cases, and the comparative forms of adjectives, thereby contributing to historical and descriptive Turkology.

Keywords: Hieronymus Megiser, Foundations of the Turkic Language, etymology

Turkiy til grammatikasini bosma shaklda nashr qilgan ilk yevropalik tadqiqotchi Ieronim Megizerdir. To‘rt kitobdan iborat “Turkiy til negizlari” asari — Institutionum linguae Turcicae libri quatuor — 1612-yilda Leyptsigda lotin tilida nashr etilgan va hozirda Leyptsig universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. Bu



asarning ikkinchi bobini turkiy tillar etimologiyasiga bag‘ishlangan. “Har qanday tilning so‘z boyligi u tarixiy, yoki zamonaviy tusda bo‘lmisin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lug‘atlarda ma’lum darajada aksini topadi. Lug‘at til so‘z boyligini o‘zida saqllovchi akkumulyator vazifasini bajaradi. Bugun muayyan tilshunoslikning qay darajada rivojlangani, takomil topgani ayni tilda yaratilgan lug‘atlarning turi, miqdori va sifati bilan o‘lchanmoqda.”[1] “Turkiy til negizlari” asaridagi lug‘atlar, etimologik tahlillar, tahlil jarayonida misol tariqasida adabiy janrlarning berilishi turkiy tillar to‘rt asar avval ham yevropaliklar tadqiqotlarining keng ko‘lamdagi o‘rganish obyekti bo‘lganini, turkiy tillar grammatikasining yaxshi rivojlanganligini ko‘rsatadi. Rus tilshunos-olimi, etimologi Vasiliy Abayev italyan tilshunosi Vittore Pisanining “L’etimologiya: storia – questioni – metodo” asari ruscha tarjimasi - “Etimologiya: istoriya, problemi, metod” (1956) nashriga so‘zboshi yozar ekan, quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “So‘z tarixi xalq tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham muhim tarixiy va etnogenetik muammolarni hal qilishda etimologik tadqiqotlar birinchi darajali ahamiyatga ega. So‘z tarixi, ularning kelib chiqishi va rivojlanishi ayni paytda inson tafakkurining tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini idrok etish, ularni o‘zlashtirishga qaratilgan ko‘p asrlik sa’y-harakatlari tarixidir. Shunday qilib, etimologik tadqiqotlar tilshunoslikning 2 ta asosiy muammosi: “til va tarix”, hamda “til va tafakkur” muammolari bilan bevosita bog‘liq.” [2] Megizerning turkiy til etimologiyasini o‘rganishdan maqsadi ham turkiy xalqlar tafakkuri, tarixi, etnogenezi, ijtimoiy hayotini tahlil qilishni ko‘zda tutadi.

“Turkiy til negizlari” asarining ikkinchi bobining 1-qismi otlarning turlanishi haqidagi mulohazalardan iborat. Unda quyidagi izlanish natijalarini kuzatish mumkin: Turkiy tilda ot turkumida jinsga aloqador muzakkarr va muannas atamasi kuzatilmaydi. Shuning uchun ayollarga ham, erkaklarga ham bir xil jumla ishlatilaveradi: “bu ayol”, “bu erkak”, “bu hayvon”. Raqamlar lotin tilidagi bilan bir xil. Otlar unli (tor yoki keng bo‘lishi mumkin) va undosh harf bilan tugashi mumkin. Undosh tovush bilan tugaydigan so‘zlarning turlanishi har doim bir xil. Chunki har bir kelishik uchun maxsus qo‘sishimchalar mavjud bo‘lib, ular ko‘plikda ham, birlikda ham ayni holda ishlatiladi. Masalan, Beg so‘zi – “bek”, “podsho” degani bo‘lib, bosh



kelishik va birlikda. Agar bu so‘zga “-ung” qo‘srimchasi qo‘silsa, Begung – “beking” hosil bo‘ladi. Agar “-e” qo‘srimchasi qo‘silsa, jo‘nalish kelishigi Bege – “bekga” hosil bo‘ladi. Shu tariqa, har bir kelishikda o‘ziga xos qo‘srimchalar mavjud. Beg – bosh kelishik, Begung – egalik shakli (genitiv), Bege – jo‘nalish shakli, Begni – tushum shakli, Begde – o‘rin-payt, Begden – chiqish.

Murojaat shakli esa bosh kelishikka “ja” so‘zini qo‘sish orqali hosil qilinadi. Ja Beg – “ey bek!” Bu holat turkiy tillarda keng tarqalgan. Ko‘plik shakl odatda “-lar” ko‘plik qo‘srimchasi orqali hosil qilinadi. Adamlar – “odamlar”, Begler – “beklar”. “-lar” qo‘srimchasi asosda A yoki O tovushi bor so‘zlarga qo‘siladi, agar bunday unlilar bo‘lmasa, “-ler” shakli qo‘llanadi. Beg -begler. Hatto fe’llarning yasalishi jarayonida ham ayrim barqaror shakllar saqlanib qolgan, masalan: jazor, jazor; jazator, jazoradur; defer itar; defer itmez; — bu shakllar qadimiy matnlarda uchraydi.[1-rasm]

Bu shakllarning ayrimlari uzoq muddatgacha saqlanib qolgan. Ba’zilarining qo‘llanishi ko‘proq poetik (she’riy) uslubda bo‘lgan. Biroq nomlardan hosil qilingan yasalma birliklar ham qadimiy bo‘lib, ular tilning dastlabki bosqichlarida paydo bo‘lgan. Ular orasida ayrim qo‘srimchalar hozirgacha ma’lum ma’nolarni ifodalash uchun saqlanib qolgan.

Singulariter.	Singulariter.
N. Beg, Dominus.	Er. Vir.
G. Begung, Domini	Erlang. Viri.
D. Bege, Domino	Ere, Vira.
A. Begi, Dominum	Eri, Virum.
V. ja Beg. Ò Domine	Ja Er, Ò Vir.
A. begden, à Domind	Ärden, à Viro.
Pluraliter:	
N. Begler, Domini.	Pluraliter.
	Erler, Viri.

1-rasm



A. Ielli, Ventum	Souki, Frigus
V. ja Iell, ô Vente	jà Souk, ô Frigus
A. Ielliden, à Vento.	Soukden, à Frigore.
Pluraliter.	Pluraliter.
N. Ieller, Venti	Soukler, Frigora
G. Iellerung, Vento.	Souklerung, Frigorū
D. Iellere, Ventis(rū)	Souklere, Frigotibus
A. Ielleri, Ventos	Soukleri, Frigora
V. ja Ieller, ô Venti	jà Soukler, Frigora
A. Iellerden, à Ven-	Souklerden, à Frigo-
tis.	ribus.
Sic porrò omnia declinantur Nomina,	
<i>Consonantem evitant. Sunt autem</i>	

2-rasm

Ismlar turlanishi haqida [2-rasm izohi]

- A. Tellus, Ventum — Yer, Shamol
- S. Telluris, Venti — Yerni, Shamolni
- D. Telluri, Vento — Yerga, Shamolga
- A. Tellurem, Ventum — Yerning, Shamolning (qarashlilik holatida)
- V. Tellus!, O Vente! — Ey Yer! Ey Shamol!
- A. Tellure, Vento — Yer bilan, Shamol bilan
- Ko‘plik (Pluraliter):
- N. Tellures, Venti — Yerlar, Shamollar
- G. Tellurium, Ventorum — Yerlarning, Shamollarning
- D. Telluribus, Ventis — Yerlar, Shamollarga
- A. Tellures, Ventos — Yerlarni, Shamollarni
- V. Tellures!, Venti! — Ey Yerlar! Ey Shamollar!
- A. Telluribus, Ventis — Yerlar bilan, Shamollar bilan

Shunday qilib barcha ismlar konsonant bilan tugaydigan guruhlarda quyidagi asosiy holatlар bo‘yicha turlanadi. Har bir tilda bu umumiyl qoida sifatida qo‘llaniladi.



3-rasm

2-qism — Ismlarning darajalari haqida bo‘lib, shunday izohlar keltiriladi:[3-rasm izohi]

Qadimgi turkiy matnda (turkiy tilida) shunday deyiladi:

Ismlarning darajalari qoidasi shundan iboratki, agar sifatga “-rek” qo‘srimchasi qo‘silsa, taqqoslovchi (solishtirma) daraja hosil bo‘ladi.

Agar oldiga "eng" kabi so‘z qo‘silsa, orttirma daraja hosil bo‘ladi.

Misollar:

Jeg — yaxshi

Jegrek — yaxshiroq

Jegrek’ jegrek — eng yaxshi

Khem — o‘xhash

Khetmes — yomonroq

Khetmes’ khetmes — eng yomon

Gajeibieg — mo‘jizaviy

Gajeibiekhem — eng mo‘jizaviy

Daraja -den va -dan qo‘srimchalari orqali ifodalanadi, bu qo‘srimchalar lotin tilidagi ab ma’nosini bildiradi. Bu qo‘srimchalar taqqoslanayotgan narsaning nomiga qo‘siladi, masalan: tusdgi ke baldan dati — asalga qaraganda shirinroq.”

Senden büük — “sendan katta”; senden kutshuck — “sendan kichik”. Bu taqqoslash usuli shunday ishlatalidiki, unda ko‘rsatilgan qo‘srimcha taqqoslanayotgan narsa nomiga qo‘siladi va shu orqali unga nisbatan boshqa narsa kichikroq yoki kamroq ekanligi ifodalanadi.

3-qism turkiy tillarning o‘ziga xos yasalish xususiyati haqida bo‘lib, yangi ismlar hosil qilishda ma’lum qo‘srimchalarni qo‘llash orqali boshqa tillardan farq qilishi izohlangan. Bu qo‘srimchalar so‘zning orqasiga qo‘siladi va misol tariqasida ba’zi so‘zlarni keltirish mumkin:



Masalan, at – "ot"; atlı – "otlı"; akıl – "aql"; akıllı – "aqlli"; gayret – "g‘ayrat"; gayretli – "g‘ayratlı"; yürek – "yurak"; yürekli – "yuraklı"; sems – "semiz"; semsiz – "semizsiz" (ya'ni, semizliksiz).

Bu -li qo‘sishimcha orqali hosil bo‘lgan so‘zlar turli ma’nolar beradi. Masalan: demir – "temir", demirli – "temirli", odun – "yog‘och", odunlu – "yog‘ochli"; toprak – "tuproq", topraklı – "tuproqli"; ağa – "aga", ağalı – "agalik qilgan". Bu kabi qo‘sishimchalar orqali egalik yoki tegishlilik ma’nolari ifodalananadi. Masalan, Stambollu – "İstanbuldan (chiqqan)", Petriçli – "Petriçlik", Otomonlı – "Usmoniy", Edirneli – "Edirnadan (chiqqan)", Türkçe – "turkcha", Arapça – "arabcha", İngilizce – "inglizcha" kabi.

Lotin tillarida esa bu kabi qo‘sishimchalar asosan ism yasovchi funksiyani bajaradi, ba’zida sifat yasovchi ham bo‘lishi mumkin. Masalan, hasta – "kasal", hastalık – "kasallik". Abstrakt (mavhum) nomlar ko‘proq shu yo‘sinda hosil qilinadi.

Demak, bu qo‘sishimchalar har bir tilda o‘ziga xos morfologik vazifani bajaradi.

“Turkiy til negizlari” asari fonetika, etimologiya, folklorshunoslik, lingvistika, leksikografiya sohalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu asar XVIII asr oxiriga qadar Yevropada turkiy tillarni o‘rganish uchun muhim manba vazifasini bajargan. Maqola asarning etimologiyaga bag‘ishlangan qismini tahlil qilib, o’sha davr leksikoni va grammatikasining bugungi kunga ancha yaqin ekanini ko‘rsatadi. Etimologiyani tahlil qilish til bosib o‘tgan bosqich mobaynida qay darajada shakllangan va rivojlangani, yevropaliklar tadqiqida qay holda aks etganini ifodalashda muhim vazifa bajaradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Dadaboyev H. "O'zbek terminologiyasi". T.-2019, 16-bet.
2. V.Pisani. "Etimologiya: istoriya, problemi, metod". M.,1956
3. Elze T. Ieronim Megizer. Umumiy nemis biografiyasi (Allgemeine Deutsche Biographie). – Jild XXI. – B. 183–185.
4. Dilichar A. 1612 yilda Yevropada nashr etilgan ilk turkiy grammatikaga oid xususiyatlar. – IDAYB, 1970. – B. 197–210.
5. Ieronim Megizer. Turkiy tilning asoslari / Основы тюркского языка. – Qozon: Magarif-Vakyt, 2012.
6. Nasilov D.M. Ieronim Megizer grammatikasining nashriga doir. // Ieronim Megizer. Turkiy tilning asoslari / Основы тюркского языка. – Qozon: Magarif-Vakyt, 2012.
7. Budagov L.Z. Turkiy-tatar lajhalarining taqqoslama lug'ati. – II jild. – Sankt-Peterburg, 1871.
8. Vinogradov V.A., Ganiyeva T.A. Lingvistik ensiklopedik lug'at. – Moskva: Sovet ensiklopediyasi, 1990.
9. Varbot J.J. Lingvistik ensiklopedik lug'at. – Moskva: Sovet ensiklopediyasi, 1990.
10. Nuriyeva F.Sh., Petrova M.M., Sungatullina M.M. Ieronim Megizerning turkiy-lotin grammatikasiga (1612) izohlar. // Ieronim Megizer. Turkiy tilning asoslari / Основы тюркского языка. – Qozon: Magarif-Vakyt, 2012.
11. <https://philart.kaznu.kz/index.php/1-FIL/article/view/1750/1676>